

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKOLOGIYA TURKOLOGY


XALQARO ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2101

2025

2

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

2

2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro‘yxatidan o‘tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) ISSN 2181 – 2101

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY’ATI

Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)</i>
P. Kenjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas‘ul kotib)</i>
B. To‘xliyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Sodiqov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Usmonova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
H. Dadaboyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
N. Rahmonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B. Karimov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Islamjanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Hamidov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
A. Alimbekov	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
Dj. Shabanov	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh. Sodiqova	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
M. Kayumova	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
M. Is‘hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
D. Sayfullayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Alimov	<i>tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
N. Xolmatov	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Qodirova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
M. Vohidova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
O. Mert	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
V. S. Yelok	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
N. Telitsin	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE STUDIES

<i>Kencayeva P., Doğan L.</i> Orhan Kemal'in hikâyelerinde dönem manzaralarının sanatsal yorumu	4
<i>Qasım Y.</i> Erkin Vahidov və çağdaş Azərbaycan poeziyasında Vətən sevgisinin tərənnümü	14
<i>Muxiddinova D.</i> Zamonaviy turk va arab adabiyotida “Eng qisqa hikoya” janri.....	22
<i>Kayumova M.</i> Haldun Tanerning badiiy tildan foydalanish mahorati	29
<i>Karimova Sh.</i> Psixologizm va qahramon ruhiyati tahlili	37
<i>Saydaliyeva N., Tursunaliyeva D.</i> Turkiy xalqlar ertaklarining falsafiy-estetik jihatlari	48
<i>Xolboboyeva N.</i> G‘azal, taxmis va qasidalar jamlangan nodir qo‘lyozma.....	57
<i>Xamdamov E.</i> Ziyo Go‘kalp she‘rlarida vatan – afsonaviy makon, uning bunyod etilishi sifatida.....	64
<i>Komilova Z.</i> Turk va o‘zbek dramaturgiyasida ozodlik masalasi: Turgut O‘zakman va Hamza dramalari misolida.....	75

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Emin O.</i> Kuzey Makedonya‘da Türk kültürünün sürdürülmesinde akademik bir köprü: üsküp Türk dili ve edebiyatı bölümü.....	84
<i>Aminova L.</i> Yaşar Kemal’in eserlerinde gerçek olayların tasviri	95
<i>Shabanov J.</i> Ortak Türk alfabesi hakkında bazı mülahazeler.....	106
<i>To‘laganova Sh.</i> Qadimgi turkiy bitiglarda urushga oid kontseptual metaforalar ..	113
<i>Allambergenova M.</i> “Ko‘k turk” etnonimining etimologiyasiga doir	121
<i>Altinboyev N.</i> “Oila” konseptining turk tilidagi qadriyat va metaforalarda ifodalanishi.....	135
<i>Shamsimatova M.</i> Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida qo‘llanilgan maqollarning semantik-uslubiy o‘ziga xosliklari	150
<i>Amirova N.</i> Görsel algı fiillerinin Türkçe ve İngilizce‘de kültürel ve dilbilimsel karşılaştırması	157

TARIXSHUNOSLIK // ИСТОРИОГРАФИЯ // HISTORIOGRAPHY

<i>To‘rayev L.</i> “Rabi‘ ul-abror” asarining turkiyada o‘rganilishi.....	166
<i>Ergashev J.</i> Turkiy qabilalarning Buxoro uchun kurashi: tarixiy tahlil.....	173

**G‘AZAL, TAXMIS VA QASIDALAR JAMLANGAN
NODIR QO‘LYOZMA**

Nilufar XOLBOBOYEVA
O‘qituvchi, TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 909/IV raqamli qo‘lyozma ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda qo‘lyozmaning tuzilishi, janr tarkibi, adabiy qimmati hamda yozuv, qog‘oz va bezak xususiyatlari tahlil etilgan. Majmua 325 sahifadan iborat bo‘lib, unda Sultoniy, Sa‘diy, Sodiq, G‘oziy, Asad kabi shoirlarning she‘rlari, shuningdek, Navoiy, Feruz va Xolis g‘azallariga bog‘langan taxmis va muxammaslar jamlangan. Qo‘lyozma turkiy va forsiy tillarda yozilgan g‘azal, muxammas, musaddas, murabba‘, masnaviy, qasida, ruboiy kabi ko‘p janrli she‘rlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda kolofoniy va matniy-qiyosiy usullardan foydalanilib, qo‘lyozmaning alifbo tartibida tuzilgani, hoshiyalarda qayd etilgan tahririy yozuvlar va poygilar orqali sahifaviy izchillik ta‘minlangani aniqlangan. Shuningdek, kotiblar — Muhammad Rahim va mulla Bobojon Tarroh nomlari qayd etilgani, asar rasmiy ehtirom bilan ko‘chirilganini ko‘rsatadi. Mazkur manba o‘zbek adabiyotida XIX asr Xorazm adabiy muhitini, taxmis va she‘riy muloqot an‘analarini, shuningdek, milliy qo‘lyozma madaniyatining yuksak darajasini namoyon etuvchi muhim adabiy yodgorlik sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari ushbu qo‘lyozmani manbashunoslik, tekstologiya va adabiy an‘analar tarixi nuqtayi nazaridan tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, majmua, Xorazm adabiy muhiti, taxmis, Navoiy, Xolis, Feruz, Sultoniy, kolofon, tekstologiya, manbashunoslik, janr xilma-xilligi.

Abstract. This article presents a scholarly study of manuscript No. 909/IV preserved at the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. The research analyzes the structure, genre composition, literary value, as well as the calligraphic, decorative, and paper features of the manuscript. The 325-page divan includes the works of six poets — Sultoniy, Sa‘diy, Sodiq, G‘oziy, Asad — and takhmises and mukhammas based on the ghazals of Navoiy, Feruz, and Kholis. Written in both Turkic and Persian, the manuscript contains poems of multiple genres such as ghazal, mukhammas, musaddas, murabba‘, masnavi, qasida, and rubai. Using colophonic and textual-comparative methods, the study identifies the manuscript’s alphabetical organization, editorial marginal notes, and the use of catchwords ensuring page continuity. The mention of scribes Muhammad Rahim and Mulla Bobojon Tarroh indicates that the manuscript was copied with official respect and accuracy. This divan stands as an important literary monument reflecting the rich poetic environment of 19th-century Khiva, the tradition of poetic dialogue through takhmis, and the high level of manuscript culture in Uzbek literature. The findings open new opportunities for research in textual criticism, source studies, and the history of literary traditions.

Keywords: manuscript, manuscript collection, Khiva literary environment, takhmis, Navoiy, Kholis, Feruz, Sultoniy, colophon, textual criticism, source studies, genre diversity.

Özet. Bu makalede, Özbekistan Bilimler Akademisi Ebu Reyhan el-Biruni adına faaliyet gösteren Şarkiyat Enstitüsü'nde muhafaza edilmekte olan 909/IV numaralı el yazması bilimsel açıdan incelenmiştir. Araştırmada el yazmasının yapısı, tür bileşimi, edebî değeri ile yazı, kâğıt ve süsleme özellikleri değerlendirilmiştir. 325 sayfadan oluşan bu mecmuada Sultoniy, Sa'dî, Sodiq, G'azî ve Asad gibi şairlerin şiirleriyle birlikte Navoiy, Feruz ve Xolis'in gazellerine yazılmış tahmis ve muhammesler yer almaktadır. El yazması, Türkçe ve Farsça dillerinde kaleme alınmış gazel, muhammes, müseddes, murabba', mesnevi, kaside ve rubai gibi çok çeşitli nazım türlerini kapsamaktadır. Araştırmada kolofon ve metin-karşılaştırmalı (tekstolojik) yöntemlerden yararlanılarak el yazmasının alfabetik bir düzende tertip edildiği, sayfa kenarlarında yer alan tashih notları ve alt yazılar aracılığıyla metin bütünlüğünün sağlandığı tespit edilmiştir. Ayrıca kâtipler Muhammad Rahim ve Molla Bobojon Tarroh'un adlarının anılması, eserin resmî bir özenle istinsah edildiğini göstermektedir. Söz konusu el yazması, XIX. yüzyıl Harezmi edebî çevresini, tahmis ve şiirsel diyalog geleneğini ve aynı zamanda millî el yazması kültürünün yüksek seviyesini yansıtan önemli bir edebî miras olarak değerlendirilmektedir. Araştırma sonuçları, bu kaynağın kaynak bilimi (manbaşinaslık), tekstoloji ve edebî gelenekler tarihi açısından incelenmesine geniş imkânlar sunmaktadır.

Anahtar Kelimeler: El yazması, mecmua, Harezmi edebî çevresi, tahmis, Navoiy, Xolis, Feruz, Sultoniy, kolofon, tekstoloji, kaynak bilimi, tür çeşitliliği.

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixini, xususan, klassik adabiyotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda qo'lyozma manbalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Qo'lyozmalar xalqning ma'naviy madaniyati, estetik tafakkuri va badiiy merosining eng qadimiy hamda ishonchli manbalaridan biridir. Ular nafaqat shoir va yozuvchilarning ijodini, balki o'z davrining adabiy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy muhitini ham aks ettiradi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm (Xiva) adabiy muhiti Markaziy Osiyoda adabiy-estetik tafakkurning yuksak darajada rivojlangan o'choqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Aynan shu davrda yaratilgan ko'plab qo'lyozma majmualar o'zbek adabiyoti tarixida **ko'p muallifli, ko'p janrli adabiy to'plamlar** an'anasining shakllanganini ko'rsatadi. Bu haqida shu paytgacha yaratilgan ilmiy ishlardan ko'rish mumkin¹

¹ Болтаев Х. Хоразм адабий мухити ва Феруз даври шоирлари. — Тошкент: Фан, 1983. Курбонов А. Хоразм адабий мухити тарихи. — Тошкент: Университет нашриёти, 2005. Содиқова М. Феруз даври Хоразм адабий мухитида анъана ва янгилик. — Тошкент, 2012. Рахимов И. Комил Хоразмий ва унинг адабий мухити. — Тошкент: Фан, 1978. Маҳмудов Ш. XIX аср охирида Хивадаги мадраса ва маориф тизими. — Тошкент, 2000. Абдурахмонов Х. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд (XIX аср охири – XX аср бoshлари). — Тошкент: Фан, 1977. Исмоилова Г. — “Феруз даври Хоразм адабий мухити.”, Ҳожиёва Г. Хивадаги сарой адабий мухити ва шеърятдаги янгиликлар. — Филол. фан. номзоди дисс. — Урганч, 2015. Маткаримова С. — “Табибий-тазкиранавис (Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳӣ асосида)” (автореферат). ердимуратова М.Р. — “Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий адабий мероси.” Юлдашева М.Т. — “XX аср Хива тазкирачилиги” (мақола/монография ва тазкира тадқиқоти). Солиева Н. Феруз даврида миллий ўзлик ва маданий янгилашниш ғоялари. —

Shu jihatdan, **909/IV raqamli qo'lyozma majmuasi** o'zining hajmi, tuzilishi, janr xilma-xilligi va badiiy jihatdan mukammalligi bilan o'zbek adabiyoti tarixini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Mazkur majmua 325 sahifadan iborat bo'lib, unda **Sultoniy, Sa'diy, Sodiq, G'oziy, Asad** kabi shoirlarning asarlari hamda ularga taxmis va muxammaslar yozgan **Navoiy, Xolis, Feruz** ijodiy namunalarini o'z ichiga olgan.

Maqsad va vazifa: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 909/IV raqamli qo'lyozma majmuaini ilmiy jihatdan o'rganish, uning tuzilishi, tarkibiy xususiyatlari va adabiy qimmatini aniqlashdir. Shu bilan birga, qo'lyozmadagi janrlar xilma-xilligi, alifbo tartibidagi devon tuzish an'anasi va unda saqlangan she'riy namuna va taxmislar orqali o'zbek adabiyotidagi an'anaviy ijodiy muhitni tahlil qilish maqsad qilinadi.

Qo'lyozmaning umumiy tarkibi, sahifalanishi, xat turi, qog'oz sifati, bezak va kitobat uslublarini aniqlash.

Majmuada jamlangan shoirlar (Sultoniy, Sa'diy, Sodiq, G'oziy, Asad)ning asarlari tarkibini aniqlab, janrlar bo'yicha tasniflash.

Qo'lyozmadagi **taxmis va muxammas¹ an'analari** orqali shoirlar o'rtasidagi **ijodiy muloqot va badiiy izdoshlikni** yoritish.

Navoiy, Xolis, Feruz kabi ustoz shoirlarning ijodiy ta'sirini aniqlash, majmuadagi "Navoiy maktabi" an'anasining davomiyligini tahlil qilish.

Katiblar (Muhammad Rahim, mulla Bobojon Tarroh) faoliyatini aniqlab, ularning qo'lyozma madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini baholash.

Qo'lyozmaning kolofon, basmala, poygir, hoshiyadagi yozuvlar va siyoh ishlatilishidagi xususiyatlar orqali **Xiva kitobat maktabining uslubiy belgilarini** tahlil qilish.

Qo'lyozmani o'zbek adabiyoti va manbashunosligi tarixida muhim ilmiy manba sifatida baholash, tadqiqot uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

Usullar: Maqolada kolofoniy-qiyosiy², matniy qiyosiy¹ usullaridan foydalanildi.

Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2020. Курбонова Н. Хоразм адабий мухитида таржима ва нашр мактаби (Феруз даври мисолида). — Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2017. Юсупова Ш. Феруз даври Хоразм адабий мухитида Навоий анъаналарининг давоми. — Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2014. Мадимирова С. — (монография/авторефератлар, Мутриб Хонахароб ва бошқалар ҳақида) — автореферат (2021 ва бошқа йиллардаги ишлар). Қосимов Б. — "Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти" (монография/тараҳий таҳлил).

¹ Курбонов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғат. – Т. Академнашр. 2010 й. – Б.196.

² "Kolofoniy-qiyosiy usul" atamasi ilmiy adabiyotlarda mustaqil metod nomi sifatida yangi (XX asrning oxiri — XXI asr boshlaridan) ishlatiladi. U kolofon (yakuniy yozuv) tahlilini qiyosiy tekstologiya bilan uyg'unlashtiruvchi kompleks metod bo'lib, asosan A. Karimov, A. Saidov, R. Vohidov va T. Jalolovlarning ishlarida nazariy asosini topgan.

Natijalar va mulohaza: Qo'lyozma 325 sahifaga yaqin bo'lib, 6 nafar turli shoirlarning (Sultoniy, Sa'diy, Sodiq, G'oziy, Asad va taxmistar orqali Navoiy, Xolis, Feruz) ijodiy namunalarini o'z ichiga olgan. Qo'lyozmada taxmis va muxammas shaklidagi she'rlar orqali shoirlar o'rtasidagi ijodiy muloqot, mushoira va badiiy ta'sir ko'rinadi. Bu holat Xiva adabiy muhitida Alisher Navoiy an'alarining davom etgani, milliy she'riyatda ijodiy izdoshlik maktabi shakllanganidan dalolat beradi.

Qo'lyozmada turkiy va forsiy tildagi she'riy namunalar mavjud bo'lib, g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musabba', musamman, murabba', masnaviy, qasida va ruboiy janrlari uchraydi. Shu bois uni **ko'p janrli majmua** sifatida baholash mumkin.

Har bir shoirning asari basmala bilan boshlangan va ayrimlarida kolofon (yakuniy yozuv) bitilgan. Bu hol qo'lyozmaning rasmiy, marosimiy va ehtiromli tarzda tuzilganini ko'rsatadi.

Qo'lyozma kotiblar Muhammad Rahim hamda mulla Bobojon Tarroh tomonidan ko'chirilgan bo'lib, ularning nomi kolofonlarda qayd etilgan. Shu bois manbani aniq kolofon, muhit va davr bilan bog'lash imkoniyati mavjud.

Hoshiyalarda, shuningdek, qiya yozilgan satrlar tahrir, to'ldirish yoki yakuniy bosqichdagi yozuv amaliyotini bildiradi. Bu esa qo'lyozmaning ishchi nusxa sifatida tuzilgan bo'lish ehtimolini oshiradi.

Majmua O'rta asrlarda bir qancha muallifning asarlarini jamlagan majmualar keng tarqalgan. Ularga bir davrda yoki turli davrlarda yashab o'tgan shoir ijodkorlarning asarlari kiritiluvini ham mumkin².

Ushbu majmuaga ko'chirilgan har bir shoirning she'rlari hoshilarda ham aks etgan. Ba'zi she'rlar tahrir qilingan bo'lishi kerak.

255^a hamda 276^b–277^a sahifalar siyoh rangda; bu sahifalarda maxsus ta'kid yoki bezaklar berilgan.

Qo'lyozma chiroyli nasta'liq xatida, qaymoq rang fabrika qog'oziga yozilgan. Matn ikki ustunli tarzda joylashtirilgan bo'lib, har bir sahifada 16 satr bor. Sarlavhalar kinovar (qizil) rang bilan yozilgan. Sahifalarning izchilligini ta'minlash maqsadida poygilar ishlatilgan — sahifaning pastki qismida keyingi sahifaning birinchi so'zi qiya shaklda qayd etilgan.

Qo'lyozmadagi asarlar 27,5x17,5 sm o'lchamli qog'ozga yozilgan. Qo'lyozmaning muqovasi to'q yashil rangda, karton qog'ozli. Unga zarhal bosma tushirilgan. 92^b–131^b sahifalarda abru qog'ozidan foydalanilgan. Majmuada shoirlar va devon tarkibi keltirilgan. Sultoniy (1^b–87^a)

¹ Hodi Zarifov. O'zbek adabiy manbashunosligi masalalari. — Toshkent: Fan, 1972. Karimov A. O'zbek qo'lyozmalari tavsifi va manbashunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 1981. R. Vohidov. O'zbek tekstologiyasi asoslari. — Toshkent: O'zRFA, 1989. Saidov A. Manbashunoslik nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: 1996. Jumaboyev Q. O'zbek qo'lyozmalarini o'rganish metodlari. — Toshkent, 2005. Paul Maas. Textual Criticism. — Oxford: Clarendon Press, 1958.

² Содиқов. Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Тошкент, 2017. – Б. 58

Basmaladan soʻng shoirning toʻliq nasabnomasi va unvoni forsha-arabcha ifoda bilan yozilgan. Basmaladan soʻng:

سید محمد ناصر تورہ زیدہ عمرہ المتخلص با لسلطانی ابن سید محمدیار تورہ ابن سلیمان نشان سید محمد
رحیم بہادرخان ثانی دام دولتہ و شوکتہ

Sayyid Muhammad Nosir toʻra zayd umruhu al mutallaxas bis Sultoniy ibn Sayyid Muhammadyor toʻra ibn Sulaymon Nishon Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon Soniy dom davlatuhu va shavkatuhu

Kolofon qismi esa:

ظل اسبحان خليفته الرحمن باعث الامن و الامان اعنى سید محمد رحيم بہادرخان دام دولتہ و شوکتہ
نينک فرمان واحيب الاذعانلاری بيله اوشبو ديوان سلطانی نی بير مينک اوچبوز داغی يکرمه بیشلانجی بیلی
۱۳۲۵ داملا باباجان تراخ ابن عبدعزیز مخزوم مرحومی نینک قولیدا اتمام سر حدیغہ بیئدی

zilli as-subhona xalifata ar-rahmon bois alloman va allamon a'niy sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon dom davlatuhu va shavkatuhu... ning farmon-i vojbul az'onlari bila ushbu devon Sultoniy ni bir ming uch yuz dagʻi yigirma beshlarinji yili domulla Bobojon tarrox ibn Abdulaziz maxzum marhumining qoʻlida etmom sarhadigʻa etdi.

Kolofon qismida **Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon Soniy** nomi tilga olinib, asar **1325 hijriy (1907–1908 milodiy)** yilda **mulla Bobojon Tarroh ibn Abdulaziz Maxzum** tomonidan koʻchirilgani qayd etilgan.

Uning sheʼriyati hikmatli, tasavvufiy mazmunlar bilan toʻla boʻlib, adabiy badiiylik jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Turkiy va forsiy gʻazallar (1^b–61^a)

Mustazod (61^b)

Murabbaʼ (62^a)

Muxammaslar (62^b–78^b)

Musaddas (79^a)

Musabbaʼ (79^b–80^b)

Musamman (81^a)

Taʼrix, masnaviy, ruboiy, muammo, qasida (81^b–87^a)

Hoshiyalarda koʻplab qoʻshimcha gʻazallar (22^a–63^b) yozilgan.

87^b - 92^a sahifalar boʻsh qoldirilgan boʻlib, bu joyda yangi muallif ijodini boshlash uchun tayyorlangan boʻlishi ehtimoldan xoli emas.

Saʼdiy (92^b–132^a)

Nasabnoma Sultoniy uslubida yozilgan. Kolofon yoʻq. Basmaladan soʻng:

سید سعد اله تورہ زید عمرہ المتخلص با لسعدی ابن سید عبداله تورہ زید عمرہ ابن حاطم نشان سید محمد
رحیم بہادرخان ثانی دام دولتہ

Sayyid Sa'dulloh toʻra zayd umruhu al mutallaxas bis Sadiy ibn Sayid Abdulloh toʻra zayd umruhu ibn xotam nishon Sayyid Muxammad Rahim Bahodirxon soni dom davlati

Turkiy va forsiy gʻazallar (92^a–113^b)

Muxammas (114^a–118^b)

Musaddas, musabbaʼ (119^a–120^a)



Masnaviy (121^a)

Qasida (124^a–125^b)

Gʻazallar (126^a–132^a)

Hoshiyalarda (101^b–130^b) koʻplab sheʼrlar qayd etilgan. 127^a–128^a sahifalarda faqat “a” tomonida yozuv bor, “b” tomoni boʻsh — bu joylar keyinchalik toʻldirilishi rejalashtirilgan boʻlishi mumkin. Undan tashqari uning masnaviysi va qasidalari 133^b - 140^a sahifalar ham boʻsh qoldirilgan.

Sodiq (140^b–234^a)

Basmala bilan boshlanib, **Rahmonquli toʻra Sodiq** deb tanishtiriladi. Kolofonda yana **mulla Bobojon Tarroh** ismi keltirilgan. Basmala yozilgan soʻng shunday bitilgan:

رحمنقلى تورە التحض بالصادق ابن سيد تورە مراد تورە ابن مغفرت نشان جنت مكان سيد محمد بهادر
مرحومى

Rahmonquli toʻra iltihlas bil Sodiq ibn Sayyid toʻra Murod toʻra ibn Magʻfirat nishon jannat makon sayyid Muhammad bahodir xon marhumi

Majmuaning taʼrix qismi mavjud. Unda **مخدوم مرحومى** كاتب ملا باباجان ترا ابن عبدالعزيز مخدوم مرحومى yaʼni kotib mulla Bobojon tarro ibn Abdulaziz Maxzum marhumi.

Hoshiyalarda yozilgan gʻazallari 141^b, 142^a, 145^b - 147^a, 148^b - 149^b, 154^a - 157^a, 163^b, 166^a - 167^b, 172^a, 173^a - 176^b, 179^b - 181^a, 182^b - 185^b, 188^{ab}, 190^{ab}, 192^a-194^b, 196^a - 212^b. Shu sahifalar orasida yaʼni 186^a-187^b, 191^a, 195^b, 200^{ab}, 204^a qiya shaklda yozilgan gʻazallari mavjud. Gʻazallari 140^b - 206^b, Mustazod 207^{ab}, muxammas 207^b-228^a (nomaʼlum sabablarga koʻra 1 muxammas uchun 215^b boʻsh qoldirilgan), Musaddas 228^b-230^b, Musabba 230^a- 231^a, 231^b-232^a murabba, 232^b-234^b qasida 234^b - 238^a sahifalar ham boʻsh qolgan.

Bu sahifalar orqali navbatdagi muallif — Gʻoziy (238^b–280^b) ijodiga oʻtilgan. Qizil siyohda غزليات سيد غارى تورە بن اتاجان تورە yaʼni Gʻazaliyoti sayid Gʻoziy toʻra bin Otajon toʻra deb yozilgan. Soʻng basmala bilan devon koʻchirilgan. Unda taʼrix qismi yozilmagan. Ammo qoʻlyozmaning oxirgi sahifasida 280^b kolofoniy qasida quyidagi misralar bilan tugagan:

تايبب تاريخى نى غازى خوش روز

كرم تاجيله ديدى بخت فيروز

Topib torixi ne Gʻoziy xush roʻz

Karam toji-la dedi baxt Firuz.

Bu misralar qoʻlyozma tugash sanasini yoki shaxsni shariflash maqsadida bitilgan qasida-kolofon namunalaridan biridir.

Uning sheʼrlari milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va tasavvufiy ruh bilan sugʻorilgan boʻlib, adabiy tilning boyligi va uslubi bilan eʼtiborga sazovor. Qoʻlyozmada uning gʻazallari (238^a–273^b), taxmisllari (274^a–280^b) sahifalarda oʻrin olgan. 281^a - 283^a sahifalar yana boʻsh qolgan. Gʻazallardan keyin (274^a–280^b) qoʻlyozmadagi sheʼrlar janr jihatidan yanada boyiydi. Bu qismda Navoiy 274^b–276^b, 277^{ab}, Feruz 276^{ab}, 277^b–278^b, Xolis 278^b–279^a gʻazallariga bagʻishlangan taxmisllar

joy olgan. Shuningdek, muxammas 274^b, 276^{ab}, musaddas 274^a, 276^b–277^a, qasidalar 279^{ab} va kolofoniy qasida 280^b ham to‘plangan.

Qo‘lyozmaning oxirgi qismi - 283^b–325^b sahifalar - Asad nomli muallif ijodiga bag‘ishlangan. Qizil siyohda:

ديوان سيد اسد توره بن اتاجان توره

Devon-i Sayyid Asad to‘ra bin Otajon to‘ra deb yozilgan. So‘ng basmala bilan boshlanadi. Uning ta‘rix qismi yo‘q.

G‘azallar (283^b–318^b)

Taxmislar (319^a–324^b) — Xolis, Navoiy, Feruz g‘azallariga.

Muxammas (320^b–321^a)

Qasida (325^{ab})

Yakunda ruboiy bitilgan.

Xulosa: 909/IV raqamli qo‘lyozma — o‘zbek klassik adabiyotining janrlar, uslublar va an‘analar xilma-xilligini ifoda etuvchi nodir manbalardan biridir. Undagi she‘rlar ijodiy muloqot, taxmis an‘analari, va adabiy tafakkurning barkamol namunasidir. Shu bilan birga, uning xati, qog‘ozi, bezagi va shakllashtirish uslubi milliy qo‘lyozma an‘analarining yuksak namunasidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur majmua manbashunoslik, tekstologiya sohalaridagi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Mazkur qo‘lyozma XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti doirasida yaratilgan ko‘p janrli, ko‘p muallifli majmua bo‘lib, unda turkiy va forsiy adabiy maktablar sintezi, badiiy an‘analar davomiyligi, shuningdek, adabiy merosni hurmat bilan yig‘ish an‘anasi yorqin namoyon bo‘lgan.

Majmua tuzilishidagi izchillik, har bir shoir asarining basmala bilan boshlanishi, sarlavhalarning kinovar bilan yozilishi, poygirlarning qo‘llanishi, hoshiyalarda to‘ldirishlar mavjudligi — bularning barchasi qo‘lyozmaning yuqori darajadagi kitobat madaniyati mahsuli ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mazkur majmua o‘sha davr Xorazm madaniy muhitida Alisher Navoiy ijodiga taxmis va muxammaslar bitish an‘anasi keng tarqalganligini, shuningdek, Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrining ijodiy hayoti bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фонди, 909/IV рақамли қўлёзма.
2. Содиқов. Қ. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Тошкент, 2017.
3. Болтаев Ҳ. Хоразм адабий муҳити ва Феруз даври шоирлари. — Тошкент: Фан, 1983. Қурбонов А. Хоразм адабий муҳити тарихи. — Тошкент: Университет нашриёти, 2005. Содиқова М. Феруз даври Хоразм адабий муҳитида анъана ва янгилик. — Тошкент, 2012. Раҳимов И. Комил Хоразмий ва унинг адабий муҳити. — Тошкент: Фан, 1978. Маҳмудов Ш. XIX аср охирида Хивадаги мадраса ва маориф тизими. — Тошкент, 2000. Абдурахмонов Ҳ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд (XIX аср охири – XX аср

- бошлари). — Тошкент: Фан, 1977. Исмоилова Г. — “Феруз даври Хоразм адабий муҳити.”, Ҳожиёва Г. Хивадаги сарой адабий муҳити ва шеърятдаги янгиликлар. — Филол. фан. номзоди дисс. — Урганч, 2015. Маткаримова С. — “Табибий-тазкиранавис (Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳӣ асосида)” (автореферат). ердимуратова М.Р. — “Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий адабий мероси.” Юлдашева М.Т. — “XX аср Хива тазкирачилиги” (мақола/монография ва тазкира тадқиқоти). Солиева Н. Феруз даврида миллий ўзлик ва маданий янгиликлар ҳолатлари. — Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2020. Қурбонова Н. Хоразм адабий муҳитида таржима ва нашр мактаби (Феруз даври мисолида). — Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2017. Юсупова Ш. Феруз даври Хоразм адабий муҳитида Навоий анъаналарининг давоми. — Филол. фан. номзоди дисс. — Тошкент, 2014. Мадимирова С. — (монография/авторефератлар, Мутриб Хонахароб ва бошқалар ҳақида) — автореферат (2021 ва бошқа йиллардаги ишлар). Қосимов Б. — “Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти” (монография/тараҳий таҳлил).
4. Karimov A. O‘zbek qo‘lyozmalari tavsifi va manbashunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 1981.
 5. Saidov A. Manbashunoslik nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O‘zRFA Sharqshunoslik instituti nashri, 1996.
 6. Vohidov R. Qo‘lyozmalar va ularning ilmiy tavsifi. — Toshkent: Fan, 1989
 7. Jalolov T. Xorazm qo‘lyozma merosi va xattotlik an‘analari. — Urganch: 2010.
 8. Исмоилов Ш. Туркий шеърятда тахмис ва мухаммас анъаналари. — Тошкент: Фан, 2005.
 9. Қурбонов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғат. — Т. Академнашр. 2010 й. — Б.196
 10. Раджабов А. Адабий жанрлар колофони. — Тошкент: Ўқитувчи, 1999.

ZIYO GO‘KALP SHE‘RLARIDA VATAN – AFSONAVIY MAKON, UNING BUNYOD ETILISHI SIFATIDA

Erkin XAMDAMOV
O‘qituvchi, ALFRAGANUS UNIVERSITY

Annotatsiya. Mazkur maqolada turk tafakkur tarixidagi muhim nomlardan biri Ziygo Go‘kalp, faylasuf, sotsiolog va ziyoli sifatida bilishimizdan tashqari, shoir sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning she‘rlarida estetik ko‘rinishdan ko‘ra davr muammolariga e‘tibor qaratib, g‘oyalar ustuvor. Parchalangan davlatni uni saqlab qoladigan intellektual tizimga solib qo‘yish davrning asosiy masalasidir. Milliy ongni shakllantirish maqsadida Markaziy Osiyoga sayohat qilgan Go‘kalp milliy doston, rivoyat va mifologiyaga murojaat qiladi. O‘z manbasini rivoyatlardan olgan afsonaviy makon o‘z qadriyatlariga yangi ma‘nolar qo‘shib, xotira yaratishning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi. Uzoq o‘tmishning